



Enajon NISHANBAYEVA,
O'zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti dotsenti
Zarina NAMOZOVA,
O'zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti Siyosatshunoslik yo'nalishi 3-kurs talabasi
E-mail: enahon235@gmail.com
Tel: (97)7100735

Falsafa fanlar doktori, dotsent N. Annayeva taqrizi asosida

BOZOR MUNOSABATLARIGA O'TISH DAVRIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH, KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIIY SHERIKLIKNI AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bozor munosabatlariga o'tish davrida aholi bandligini ta'minlash, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda ijtimoiy sheriklikning ahamiyati hamda o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy sheriklik, tadbirkorlik, aholi bandligi, fuqarolik jamiyati institutlari, kichik biznes, hamkorlik, bozor munosabatlari.

ЗНАЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНОГО ПАРТНЁРСТВА В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ, РАЗВИТИИ МАЛОГО БИЗНЕСА И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В ПЕРИОД ПЕРЕХОДА К РЫНОЧНЫМ ОТНОШЕНИЯМ

Аннотация

В данной статье анализируется значение и особенности социального партнёрства в обеспечении занятости населения, развитии малого бизнеса и предпринимательства в период перехода к рыночным отношениям.

Ключевые слова: Социальное партнёрство, предпринимательство, занятость населения, институты гражданского общества, малый бизнес, сотрудничество, рыночные отношения.

THE ROLE OF SOCIAL PARTNERSHIP IN ENSURING EMPLOYMENT, DEVELOPING SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP DURING THE TRANSITION TO A MARKET ECONOMY

Annotation

The article examines the role of social partnership in ensuring employment during the transition to market relations. Particular attention is paid to its significance for the development of small business and entrepreneurship, as well as to the interaction between the state, civil society institutions, and the private sector.

Key words: Social partnership, entrepreneurship, employment, civil society institutions, small business, cooperation, market relations.

Kirish. Mustaqillikning dastlabki yillarida davlatning biznes vakillariga ko'magi xususiy mulkni e'tirof etish, uning rivojlanishi uchun meyoriy –huquqiy bazani ta'minlashdan iborat bo'ldi. O'sha paytlarda aholining aksariyati sotsialistik mafkura qoldiqlaridan to'la qutulib ulgurmagan bo'lib ularning ongida xususiy mulkchilikka, biznesmenlarga nisbatan salbiy qarashlar ustunroq edi. Ana shunday vaziyatda xususiy mulk va biznes vakillarini himoyalash va qo'llab-quvvatlash zarur edi.

Ta'kidlash zarurki, O'zbekistonda mulkka egalik qilish, xususiy mulkchilik hamda tadbirkorlikning dastlabi ildizlari va shakllanishi anchagina qadimgi davrlarga borib taqaladi. Mintaqada azaldan ajdodlarimiz yer va mol mulkning haqiqiy egalari sifatida dovruq taratganlar, o'zlariga tegishli yerlardan sifatli maxsulot yetishtirib, mo'l-ko'l hosil olganlar. Ya'ni, xususiy yer va mulkning haqiqiy xo'jayinlari hisoblanganlar. Bu qadimgi davrlardayoq O'zbekiston hududida tadbirkorlikning dastlabki ildizlari shakllanishiga turtki bo'lganligidan dalolatdir. Bu borada tarixiy ma'lumotlarni tadqiqotchilarning ishlarida uchratish mumkin[1].

Tadqiqot usullari: ushbu maqola mantiqiylik, tizimlilik va qiyosiy tahlildan foydalanildi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Ma'lumki, XX asr 90-yillar boshlarida respublikada bozor munosabatlari tobora rivojlanayotgan bir sharoitda mazkur sohaga talluqli

normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilina boshlandi. Eng muhimi, mustaqillik arafasi va uning dastlabki yillarida ushbu yo'nalishda qabul qilingan 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'g'risida"gi Qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bunga misol bo'ladi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida qabul qilingan ushbu normativ-huquqiy hujjatlar asosida mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirish, bu sohaga jamoatchilikni faol jalb qilish o'zining ijobiy natijasini berdi. Keyinchalik, bu ishlarning davomi sifatida 1998-yil 9- aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi[2] yangi Farmoni e'lon qilindi. Ushbu Farmonda kichik va xususiy korxonalarni tashkil etish va ruyxatdan o'tkazishning umumiy shartlari va prinsiplari, kichik va xususiy korxonalarni rag'batlantirish borasidagi, tadbirkorlarning huquqlarini himoyasi yuzasidan meyorlar belgilab berildi

Mamlakatimizda mavjud muammolarning ko'pchiligini biznes vakillarining ishtirokisiz yechish qiyin bo'lgani uchun ularni ham ijtimoiy sherikchilik jarayoniga tortish zarurati tug'ildi. Shu zaruratni hisobga olib 2018- yil 10-oktabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning huquqiy va institusional

asoslarini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori[3], 2019- yilda esa "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi qonun qabul qilindi.

Shu asosda ijtimoiy sheriklik munosabatlarini qamrab oluvchi huquqiy baza sifatida "Ijtimoiy sherikchilik to'g'risida"gi va "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi qonunlari e'tirof etiladi. Aytish zarurki, bu hujjatlarda ijtimoiy mehnat sohasidagi munosabatlar ham qamrab olingan.

Shuning uchun ham faylasuf olim A.Begmatov mehnat munosabatlarida ijtimoiy sheriklik masalasiga to'xtalib «Ijtimoiy sheriklik nazariyasining maqsadi jamiyatdagi mehnat munosabatlarida, muayyan guruhlar manfaatlarini o'rtasida mavjud bo'lgan ziddiyatlarni bartaraf etish va konsensusni ta'minlashga qaratilgan edi»[4] deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat, ijtimoiy sheriklik iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolatning birga aks etishi mexanizmi bo'lib hisoblanadi.

Natija va muhokama. Shu nuqtai nazardan bugun ijtimoiy sheriklik nafaqat, mehnat sohasidagi iqtisodiy manfaatlarini muvofiqlashtirish, ijtimoiy va mehnat mojarolarini hal qilish vositasi balki, endilikda u tadbirkor, agentlik va fuqarolik jamiyatlari o'rtasida amalga oshirilmoqda.

Bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan ijtimoiy mehnat munosabatlarining alohida bir tizimi, davlat, ish beruvchilar va xodimlar manfaatlarini muvozanatini ta'minlovchi samarali usul sifatida ijtimoiy sheriklikni amalga oshirish mexanizmi jamoa shartnomalari va kelishuvlari, qo'shma qarorlar, lokal hujjatlar, kasaba uyushmalari bilan kelishib qabul qilinadigan boshqa hujjatlarni tuzish va tatbiq etishga asoslangandir[5].

Xalqaro mehnat tashkilotining hujjatlarida "ijtimoiy muloqot" sifatida e'tirof etilgan bu tamoyil, ijtimoiy sheriklikning shakli bo'lgan davlat, ish beruvchilar va xodimlar o'rtasidagi uch taraflama hamkorlik (tripartizm) asosida amalga oshirilishi ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng ilk Bosh kelishuv 2011 -yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, "O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikni amalga oshirish yuzasidan 2011-2013- yillar uchun tuzildi va taraflar tomonidan imzolandi"[6]. Shundan buyon O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 54-moddasiga binoan Bosh kelishuv har uch yilda yangidan tuzilib kelinmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda ijtimoiy sheriklik tamoyillariga asoslangan holda, bandlikda ta'minlash, ishsizlikni qisqartirish sohasida ham bir qator ishlar amalga oshirildi.

Rivojlangan davlatlar kabi mamlakatimizda ham ishsiz fuqarolarni haq to'lanadigan jamoat ishlariga keng jalb etish aholi bandligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Oxirgi olti yilda ko'plab fuqarolarimiz haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilindi, yuz minglab yoshlar, xotin-qizlarning bandligi ta'minlandi.

Raqamlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2016- yilga qadar 28,4 ming nafar ishsizga o'rtacha 12,0 mlrd. so'm mablag' ajratilgan bo'lsa, 2021- yilda 234 ming shaxs uchun 240 mlrd. so'm mablag' yo'naltirildi[7].

Bundan tashqari, o'zini o'zi band qilgan aholi uchun soliq imtiyozlari berilishi hamda ko'pgina cheklovlarining bekor qilinishi tufayli 500 ming nafar fuqaro mehnat faoliyatini qonuniy tarzda yo'lga qo'ydi[8].

Mehnat munosabatlarida xodimning hayoti va sog'lig'i ustuvorligidan kelib chiqqan holda, taraflar o'z zimmlariga mehnat xavfsizligi va gigiyenasi tizimini joriy etish, uning faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlashda ishtirok etish majburiyatlarini oldilar.

Ijtimoiy kafolatlar va ijtimoiy himoya sohasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qo'yilgan vazifalardan kelib chiqib 2030-yilgacha aholini ijtimoiy muhofaza qilish strategiyasini hamkorlikda ishlab chiqish taklifi Bosh kelishuvga kiritildi.

Bu masalalar ichida qambag'allikka qarshi kurash alohida o'rin egallaydi. So'nggi yillardagi hodisa – voqealarning rivojiga razm solsak, 2020- yil aholini ijtimoiy himoya qilish borasida tub burilish yili bo'lganining guvohi bo'lamiz. Avvalo, aholining muayyan qatlami o'rtasida kambag'allik mavjudligini birinchi marta tan olib, uni qisqartirish bo'yicha keng qamrovli ishlarni boshlandi[9]. Uzoq yillar ochiqqanmagan raqamlar tilga olinib, kambag'allar sonini kamaytirishga e'tibor kuchaydi, amaliy ishlarga jiddiy kirishildi. Bu bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilib, alohida tizim yaratildi. Mutaxassislar kambag'allikni uchta — o'ta muhtoj bo'lmagan, muhtojligi ancha yuqori va o'ta qashshoqlikda yashovchilarga ajratish lozimligini qayd etadi.

Kambag'allik darajasini qisqartirish ko'p jihatdan daromadlar taqsimlanishidagi tafovutni kamaytirish, ijtimoiy taqabulashuvning xavfsizlik meyorlaridan yuqori bo'lmashligini ta'minlash, muhtoj oilalarni o'rta daromadlilar qatoriga o'tkazish bilan bog'liqdir.

O'zbekistonda bu sohadagi ishlarni davom ettirib, ijtimoiy adolat tamoyili asosida aholining yordamga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, kambag'allikni bartaraf etish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Bu ishlarda NNT hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari qatorida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik aholi kambag'alligini qisqartirishning asosiy omili sifatida e'tirof etildi.

"Samarali makroiqtisodiy siyosatni yuritish, barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, tadbirkorlik muhitini yaxshilash orqali mamlakatda kambag'allikni qisqartirish borasida maqbul davlat siyosatini amalga oshirish tizimini joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi etib qayta tashkil etildi"[10]. Endilikda vazirlikka nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlash, tarmoqlarni rivojlantirish, balki kambag'allikni qisqartirish masalalari ham yuklatildi. Kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishi esa bu fuqarolarni farovonligini oshirish, ularni ish bilan ta'minlash va tadbirkorlikka keng jalb sifatida e'tirof etildi.

Bosh kelishuvda ayollar va yoshlar uchun qo'shimcha kafolatlar o'rnatish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha beshta muhim tashabbusi" bo'yicha dasturlaridan kelib chiqib ularning manfaatlarini himoya qilish ijtimoiy sheriklarga tavsiya etildi.

Jamiyat talablari va iqtisodiy islohotlar ta'sirida yoshlar orasida individual iqtisodiy faollik keng tarqalib ulgurgan.

Fuqarolarning iqtisodiy sohasidagi faolligi ularning bozor iqtisodiyotini to'liq moslashuvi bilan bog'liqdir. Bu boradagi natija yoshlarning bandligi masalasi bilan belgilanadi. Hozirgi iqtisodiyot talablari va umuman, bozor talablariga yoshlar tezroq kirib bormoqdalar.

Shuning uchun jamiyatning peshqadam kuchi bo'lgan yoshlar faol iqtisodiy inson sifatida iqtisodiy institutlarning rivojiga katta xissa qo'shmoqdalar. Shaxs fikrining o'zgarishi, qarashlarni transformatsiyaga uchrash xolati avvalo yoshlarda namoyon bo'lmoqda.

Mehnat munosabatlarining gender jihatlarini to'la inobatga olish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonunida ko'zda tutilgan kafolatlariga rioya etilishini hamda imtiyozlar

berilishini ta'minlash vazifasi qo'yildi. Bosh kelishuvda ijtimoiy muloqot va ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish masalalari alohida o'rin tutadi.

Tahlillarga ko'ra, ijtimoiy sheriklik munosabatlarining asosini tashkil etgan jamoa shartnomalari va kelishuvlari orqali ijtimoiy himoya choralari qo'llash amaliyoti yildan-yilga kengaymoqda. Jamoa shartnomalari va kelishuvlari orqali xodimlarning to'la bandligini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish masalalari hal etilmoqda. Jamoa shartnomalari va kelishuvlarida mehnat havfsizligi masalalariga alohida ahamiyat qaratilgan.

Ish vaqti va dam olish vaqtini tartibga solish borasida aksariyat korxona va tashkilotlarda asosiy uzaytirilgan va qo'shimcha ta'tillar o'rnatilgan, ish stajiga qarab qo'shimcha ta'tillar berish tartibi joriy etilgan. Barcha jamoa shartnomalari va kelishuvlariga ayollar va yoshlar mehnatini tartibga solish bo'yicha meyoriy bo'limlar kiritilgan bo'lib, ularda ishga qabul qilish uchun eng kam yoshga og'ishmay rioya qilish, majburiy mehnat va bolalar mehnatiga yo'l qo'ymaslik, kamsitmaslik va teng ahamiyatli mehnat uchun teng haq to'lash prinsiplariga rioya etish borasida ish beruvchilarning majburiyati belgilab qo'yilgan. Ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish va mustahkamlash choralari kiritilishini barcha darajadagi jamoa kelishuvlari va shartnomalarining o'ziga hos jihati deb baholash mumkin.

O'zbekistonda aholini himoya qilish, xususan bandlik masalalari doimo diqqat markazida bo'lgan. Yuqoridagi misollar yordamida bu masalaga e'tibor ijtimoiy sheriklikning samarali mexanizmlari asosida amalga oshirilayotgani ko'rsatilgan.

2017- yilda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy sur'ati tubdan o'zgardi. Harakatlar strategiyasiga muvofiq, iqtisodiy rivojlanish, avvalo, aholining hayot darajasi va sifatini oshirishga qaratilgan mutlaqo yangi bosqichga o'tdi.

Amalga oshirilgan barcha islohotlar "Inson manfaatlari va farovonligi hamma narsadan ustun" degan tamoyilga asoslandi.

Bu borada SH.Mirziyoyevning "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini strategik asoslangan darajada qisqartirish, xususiyl mulkni yanada rivojlantirish va uni himoya qilishga doir kompleks masalalarni hal etish – Hukumat, davlat boshqaruvi organlari va barcha darajadagi hokimliklar uchun eng muhim ustuvor vazifa sifatida belgilanadi"[11] degan fikri iqtisodiy islohotlarda davlat bilan NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarining faol ishtirokini ham qamrab olganligini tushunish kerak.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Prezident SH.Mirziyoyev tomonidan etilgan "Agar xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va kuchli bo'ladi" tamoyil mamlakatimizda kichik biznes va xususiyl tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash borasida muhim ahamiyat kasb qildi. Bunda: birinchidan, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rejadani tashqari va muqobil tekshirish bekor qilindi. Tadbirkorlik subyektlariga nisbatan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilish ko'rinishida jazo qo'llash taqiqlandi. O'zbekistonning Jahon bankining "Doing Business 2018" ma'ruzasida biznes yuritish uchun eng qulay sharoit yaratgan "top 10" talik islohotchi mamlakatlar ro'yxatiga kirishi ham olib borilgan islohotlarning natijasidir; ikkinchidan, tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish uchun davlat xizmatlarini ko'rsatish tartibotlari tubdan qayta ko'rib chiqilib, ular soni va ro'yxatdan o'tish uchun ketadigan vaqt esa qisqardi; uchinchidan, Savdo-sanoat palatasi faoliyati to'liq qayta isloh qilindi va vazifasi tadbirkorlik subyektlarining qonuniyl manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan ombudsman instituti tashkil qilindi. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash Davlat jamg'armasi tashkil etildi; to'rtinchidan, tijorat banklari mahallalarda aholini, avvalo, yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilish amaliyotini joriy qildilar[12].

ADABIYOTLAR

1. Массон В.М Экономика и социальный строй древних обществ. – Л: Наука. 1976.; Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы. – М-Ленинград, 1962.МИА № 118.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Хусусий тadbirkorlik, кичик ва ўрта бизнесни ривожлантиришни янада рағбатлантириш чора-таdbirlari тўғрисида»ги Фармони // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – Тошкент, 1998 й, №4.
3. Конун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 22.10.2018 й., 07/18/3980/2072-сон
4. Бегматов А. Ижтимоий шериклик ва ижтимоий хавфсизлик // Жамият ва бошқарув. 2014. - №1. –Б.44
5. Исаев М. Меҳнаткашларнинг ижтимоий-иқтисодий манфаатларини химоя қилиш йўналиши бўйича Ўзбекистон Республикаси қасаба уюшмалари федерациясининг маърузалар мажмуаси, 2019 йил, 1-бет.
6. Моховикова М.Н. Взаимодействие государства и негосударственных некоммерческих организаций в Узбекистане : диссертация ... кандидата политических наук. М.: 2016. – 162 с.
7. Хўжаева М.. Бандлик соҳасидаги ислохотлар самараси аҳолининг кундалик ҳаётида ўз аксини топмоқда. 22.06.2023. // <https://parliament.gov.uz/oz/articles/1566#>!
8. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // 29.12.2020. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
9. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // 29.12.2020. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
10. Jo'rayev R., Isabayev M. O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati. O'quv qo'llanma. "Iste'dod ziyo press" nashriyoti. –Namangan, 2022. 388 b.
11. Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. 14.12.2016. <https://president.uz/uz/lists/view/111>
12. 2017 йил — шиддатли ислохотлар йили. – Т.: "Адолат", 2017. – Б.40.